

Mamirova Xumora Rahimberdiyevna

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoiy odil sudlov fakulteti 3-bosqich talabasi

E-mail: xumoramamirova1@gmail.com

Tel: +99894 718 25 05

KONSTITUTSIYA – ERKIN VA FAROVON HAYOT GAROVI

Annotatsiya: Huquqiy davlat sari intilayotgan har qanday jamiyatda Konstitutsiya ustuvor ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan jamiyat sharoitida aynan Konstitutsiya hal qiluvchi asosiy rol hisoblanadi. Ushbu maqolada O'zbekiston mustaqillika erishganidan so'ng mamlakat rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan konstitutsiyamiz qabul qilinishi, shu vaqtgacha necha marotaba o'zgartirilganligi va unga kiritilgan yangiliklar haqida ma'lumot beriladi. Shuningdek, Konstitutsiyaning erkin va farovon jamiyat barpo etishdagi o'rni yoritilgan.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, huquqiy hujjat, huquqiy davlat, referendum, islohot, ekologik huquq, ta'lim huquqi, advokatlik faoliyatining konstitutsiyaviy kafolati.

Annotation: In any society striving towards a rule of law, the Constitution holds paramount importance. In a developed society, it is the Constitution that plays the decisive and central role. This article provides information on the adoption of the Constitution, which has been of significant importance in the development of Uzbekistan since the country gained independence, as well as details about how many times it has been amended and the innovations introduced. Additionally, the role of the Constitution in building a free and prosperous society is highlighted.

Keywords: Constitution, Constitution of the Republic of Uzbekistan, legal document, rule of law, referendum, reform, environmental law, right to education, constitutional guarantee of advocacy activities

Аннотация: В любом обществе, стремящемся к правовому государству, Конституция имеет первостепенное значение. В условиях развитого общества именно Конституция играет решающую роль. В данной статье рассматриваются вопросы принятия Конституции Республики Узбекистан, которая имеет важное значение для развития страны после обретения независимости, а также информация о том, сколько раз она была изменена и какие новшества в нее были внесены. Кроме того, освещена роль Конституции в построении свободного и процветающего общества.

Ключевые слова: Конституция, Конституция Республики Узбекистан, правовой документ, правовое государство, референдум, реформа, экологическое право, право на образование, конституционная гарантия адвокатской деятельности.

Har bir mamlakatning huquqiy tizimini shakllantiruvchi mustahkam asos bo'lmish Konstitutsiya davlatning mustaqilligi va barqarorligining huquqiy asosi va muhim qonuni hisoblanadi. U nafaqat davlat balki, har bir fuqaroning erkin va farovon hayoti kalitidir. Aynan Konstitutsiya, jamiyat hayotining barcha jabhalarini tartibga soluvchi me'yoriy huquqiy manba yoxud adolat va qonun ustuvorligini ta'minlashning bosh kafolati hisoblanadi. Konstitutsiya inson va davlatning taraqqiyoti, rivojlanishi, shuningdek fuqarolarning erkin va baxtli yashash huquqini himoya qiluvchi muhim poydevordir. U orqali davlatning qonuniy asoslari

shakllantirilib, jamiyatda adolat, tenglik va barqarorlik ta'minlanadi. Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va ma'naviy-madaniy hayotining barcha sohalarida izchil va bosqichma-bosqich, uzviy va tizimli ravishda amalga oshirilayotgan keng qamrovli demokratik islohotlarning mustahkam yuridik manbai hamda asosiy huquqiy kafolati – Konstitutsiya hisoblanadi.

Konstitutsiya - lotincha “constitution” so'zidan olingan bo'lib, “tuzilish”, “o'rnatish” degan ma'nolarni bildiradi¹. Konstitutsiya alohida yuridik xususiyatlarga ega bo'lgan yagona siyosiy-huquqiy hujjat hisoblanadi. U boshqa normativ-huquqiy hujjatlardan o'zining asosiy belgilari bilan ajralib turadi.

- Konstitutsiya maxsus subyekt ya'ni O'zbekiston xalqi tomonidan referendum orqali yoki uning nomidan O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari va Senat a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi;
- mazkur qoidalar ta'sis etuvchi, yo'naltiruvchi, birlamchi ahamiyatga ega;
- konstitutsiyaviy tartibga solish hajmining keng qamrovliligi, ya'ni u muhim va keng ko'lamdagi ijtimoiy munosabatlar doirasiga ta'sir ko'rsatadi;
- konstitutsiya alohida yuridik hususiyatlarga ega ya'ni boshqa qonunlardan ustunlikka, oliy yuridik kuchga, o'ziga xos muhofaza shakliga va maxsus tarzda qabul qilinish va o'zgartirish tartibiga ega².

Huquqiy davlat sari intilgan har bir demokratik davlatda Konstitutsiya ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda bizning davlatimizda ham mustaqillika erishganimizdan so'ng eng katta qadam sifatida 1992-yil 8-dekabr kuni XII chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasida “O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi” qabul qilindi. Unga ko'ra bosh qomusimiz 6 bo'lim 26 bob 128 moddadan iborat bo'lib unda davlat rivojlanishining asosiy prinsiplari belgilandi. Konstitutsiya xalqimiz irodasini aks ettirib, mustaqil davlat sifatida rivojlanish yo'lini va fuqarolar va davlat o'rtasidagi munosabatlarning asosiy qoidalarini belgilab berdi. Yuritimizda har bir sohada qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar aynan konstitutsiyaga asoslangan holda qabul qilindi va hozirda ham shunday bo'lib kelmoqda.

Konstitutsiyamiz qabul qilingandan keyin hozirgi kunga qadar 14 marta o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi³. Biroq bu o'zgartirishlarning hech biri referendum orqali amalga oshirilmagan. Bu jarayonlarda asosan konstitutsiyada mavjud moddalardan aynan qaysidir birlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar davlatimizni har tomonlama rivojlantirish, shu jumladan, xalqaro maydonda mamlakatimizning nufuzini mustahkamlashga qaratilgan. Mazkur islohotlarni amalga oshirishda bevosita asosiy qonunimizni yangilash zaruriyati yuzaga keldi. Shu maqsadda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev konstitutsiyani yangilash va ushbu qonun loyihasini referendumga qo'yish orqali qabul qilish zarur deb ta'kidladilar.

Referendum - O'zbekiston Respublikasining qonunlarini va boshqa qarorlarni qabul qilish maqsadlarida jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari yuzasidan fuqarolarning umumxalq ovoz berishidir⁴. Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, referendumning saylovdan farqli jihatlari mavjud. Referendum o'tkazilayotganda biror lavozimga nomzod yoki nomzodlar uchun ovoz berilmaydi, balki muayyan bir masala – qonun loyihasi, konstitutsiya, konstitutsiyaga tuzatish kiritishga oid savollar qo'yiladi. Referendumda qabul qilingan qaror

oliy yuridik kuchga ega bo'lib u faqat referendum yo'li bilan bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkin.

Yangilangan tahrirdagi Konstitutsiya loyihasini tayyorlashda xalqimizning fikrlari va shuningdek takliflari bir emas, balki ikki bosqichda o'rganildi. Birinchi bosqichda fuqarolarimizdan Konstitutsiya loyihasini shakllantirishga qaratilgan

60 mingdan ziyod takliflar kelib tushgan. Ikkinchi bosqichda Konstitutsiya loyihasi bevosita umumxalq muhokamasiga qo'yildi va qariyb 5 millionga yaqin aholi ommaviy axborot vositalari va internet tarmog'i orqali loyiha bilan tanishdi, 150 mingdan ziyod mulohaza va takliflar kelib tushdi. Shu bilan bir qatorda, xalqaro-huquqiy hujjatlar, 190 dan ortiq davlat tajribasi o'rganildi va loyihaga 6 xil ekspertiza tayinlanib, ekspertiza o'tkazildi. Aytish joizki, yangi tahrirdagi konstitutsiyaga asosan moddalar soni eski tahrirdagi 128 tadan 155 taga oshirildi.

Mazkur harakatlar natijasida 2023-yil 30-aprel kuni yangilangan tahrirdagi konstitutsiya referendum orqali qabul qilindi. Konstitutsiyamizning 65 foizga o'zgarganligi jamiyatimizdagi har bir sohada islohotlar amalga oshirilib huquqlar va majburiyatlar ma'lum miqdorda ko'paydi. Xususan, eski tahrirdagi konstitutsiyamizning IX bobi "Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar" deb nomlanib, unda 7 ta modda mavjud bo'lgan. Yangilangan tahrirdagi konstitutsiyamizning IX bobiga o'zgartirish kiritilib "Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar" deb nomlandi va bu bob o'z ichiga 13 moddani qamrab oldi. Avvalambor, bobni o'ziga madaniy va ekologik huquqlar kiritilgani endilikda, bu huquq sohalari ham alohida bosh qonunimizda belgilab qo'yilganidan dalolat beradi.

Aytib o'tishimiz joizki, kiritilgan yangi moddalar va o'zgarishlar faqatgina iqtisodiy va ijtimoiy sohada emas, balki madaniy va ekologik sohalarda ham amalga oshirildi. Eski tahrirdagi konstitutsiyamizda ekologiya so'zi faqatgina bir marotaba "Jamiyatimizning iqtisodiy negizlari" bobida keltirib o'tilgan. Yangi tahrirdagi konstitutsiyamizda esa ekologiyaga oid alohida modda ya'ni 49-modda qabul qilindi va O'zbekiston Respublikasining "Ekologik nazorat to'g'risida"gi qonunidagi asosiy vazifalar, prinsiplar va ekologik huquqlar asosiy qonunimizda belgilab qo'yildi.

So'ngi yillarda yurtboshimiz tomonidan yoshlarga alohida e'tibor berilmoqda. Bu e'tiborni birinchi navbatda ta'lim tizimini modernizatsiya qilishdan boshladi desak mubolag'a bo'lmaydi. Eski tahrirdagi konstitutsiyamizning 41- moddasida "Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir"⁶ deb aytilgan edi. Yangilangan tahrirdagi konstitutsiyamizning 2-bo'lim IX bobida 50-51-moddalari qabul qilinib unda maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim va oliy ta'limga oida qqoidalar belgilab quyildi. Xususan, 50-moddada "Davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlaydi. Davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Davlat bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlaydi. Umumiy o'rta ta'lim majburiydir. Maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta ta'lim davlat nazoratidadir. Ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi"⁷ deb belgilab qo'yildi. 50-moddada maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim va tarbiyani rivojlantirish bo'yicha asosiy qoidalar

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda katta o'zgarishlardan biri "Advokatura"deb nomlangan XXIV bobning qo'shilishi bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi "Advokatura to'g'risida"gi qonunini huquqiy asoslash, ular faoliyatini yanada mustahkamlash va takomillashtirish

maqsadida yangi bob va yangi ikki modda konstitutsiyamizga kiritib qo'yildi va advokatlik faoliyatining konstitutsiyaviy kafolati ta'minlandi.

Xulosa qilib aytganda, aynan Konstitutsiya fuqarolarning tengligi, adolatli boshqaruv, ijtimoiy barqarorlik va shuningdek jamiyatning barcha a'zolari uchun yagona qoidaga asoslangan hayot tarzini belgilab, davlatning rivojlanishi va tinchlik uchun muhim shart – sharoitlar yaratadi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya xorij tajribalariga asoslangan holda qabul qilindi va milliy qadriyatlarimiz va an'alarimizga moslashtirildi. Mazkur islohotlar O'zbekiston davlat boshqaruv tizimini yanada demokratlashtirishga xizmat qilmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi. Konstitutsiyamizning 65 foizga yangilanganligi davlatimiz huquq tizimi, jamiyat va davlat boshqaruvi tizimiga keng qamrovli o'zgarishlar, jumladan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalarda amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi barcha fuqarolarning erkin va farovon hayot garovi sifatida mustahkam poydevor hamda demokratik davlatchiligimizning tamal toshi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. [Yangi Konstitutsiya – taraqqiyot qomusi, <https://interoncof.com/index.php/cad/article/view/2103/1931>]
2. [Xalq so'zi, <https://xs.uz/uzkr/post/konstitutsiya-tushunchasi-funktsiyalari-va-asosij-printsipalari>]

Foydalanilgan internet manbaalari

1. [<https://oz.sputniknews.uz/20221208/ozbekiston-konstitutsiyasi-21150450.html>]
2. [<https://kun.uz/9895365>]

Foydalanilgan normativ-huquqiy hujjatlar

1. [O'zbekiston Respublikasi Referendum to'g'risidagi qonuni. 19.12.2023-y., 03/23/883/0949-son]
2. [O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi eski tahriri, 09.02.2021-y., 03/21/671/0093-son]
3. [O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son]